

# INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA - MARCH 7

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

## PEDAGOGIK AMALIYOT VOSITASIDA TALABALARNI OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK QILISHGA TAYYORLASHNING TAMOYILLARI

Abduraxmonova Sayyoraxon Shaxobidinovna

"University of economics and pedagogy" NOTM, Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqlada pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashning tamoyillarihaqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** pedagogik amaliyot, pedagog fasilitator, tamoyil, zamonaviy bilim

Yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma`naviy-axloqiy fazilatlar, innovatsion potentsialga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan - bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo`lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda fan va texnika rivojini taraqqiy etish kabi muhim masalalarga nazariy va amaliy jihatdan yechim topish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy ta'lif tizimida mutaxassislarni tayyorlash asosan ikki muhim bo`g`in: ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarlikdan iborat. Amaliy tayyorgarlik nazariy bilim va ko`nikmalarni qo'llashni uzlusizligi va uzbekligidan iborat bo`lib, ko`p jihatdan ta'lif jarayonida tashkil etiladigan pedagogik (malakaviy) amaliyoti samaradorligiga bog`liq.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, pedagogik amaliyot jarayonlarida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashning zamonaviy shakl va usullari, xvositlari, texnologiyalar asosida tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati va bunda ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, MTTda ota-onalar bilan ishslash bo'yicha juda ko`p ishlarni tarbiyachilar amalga oshiradi. Bolalar tarbiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va ular hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. Ota-onalarga bolalar tarbiyasida nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligi, ularni maktab ta'limga tayyorlash, sog'lig'ini saqlash, ovqatlanishi va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi.

Maktabgacha ta'lif tashkiloti pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko`nikmalariga doir asosiy talablar majmui (**pedagogning kasbiy standarti**)<sup>1</sup>, va pedagogning roli (me'yoriy belgilangan va qo'llab-quvvatlangan na'munaviy hatti-harakat hulq-atvor<sup>2</sup>)ni talabalar amaliyotda anglashi kerak. Ya'ni:

- Davlat o'quv dasturini amalga oshiruvchi pedagog bolaning shaxsiga hurmat ko'rsatishi va ta'lif va tarbiya jarayonini dastur tamoyillariga muvofiq tashkil qilishi;
- Pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lif va tarbiya berishda o'z bilimi, ko'nikma va resurslaridan foydalanishi va albatta pedagog ta'lif va tarbiya jarayonini rejalashtirib, bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratishi;
- Buning uchun pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini bilishi, uning hissuyularini tushunishi, har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlab hisobga olishi;
- Pedagog guruhda shunday inklyuziv muhit yaratishi kerakki, unda har bir bola o'zini ardoqli, qobiliyatli va ta'lif jarayoniga jalb qilingandek his qilishi;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lif va tarbiya to'g'risida"gi, 16.12.2019 yildagi O'RQ-595-sonli Qonuni

<sup>2</sup> Z.E. Azimova O'quvchilarning shaxslararo munosabatlari integral diagnostikasi. Diss... kand. ped. nauk. – Toshkent, 2009. 79 b

# INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA - MARCH 7

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

- Pedagog bolaning mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shishi va pedagog, shuningdek, bolalarda zarurat bo'lganida, har bir bola tarbiyachidan yordam va dalda olishi mumkinligiga ishonch hissining paydo bo'lishiga yordam berishi;

- Pedagog doimiy ravishda kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun o'z kasbiy faoliyatini hujjatlashtirib, tahlil qilishi va baholashi;

- Pedagog bolaning, ota-onalarning va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qilishi va o'z ishini teng sheriklik asosida qurishi kerak.

Buning uchun amaliyot davridagi ijobjiy sog'lom muhit talabalarni tarbiyachi faoliyatini bevosita kuzatishda, ularning faol hatti-harakatlarini o'z tasavvurida his qilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, talabaning xohishi, qiziqishi va hissiy yuksalishi kuchli ruhiy zo'rqiish ortiqcha ishlarga olib kelmasligi va foydali bo'lishi talabalarni kasbiy sohada o'zini o'zi anglashga o'rgatishi, o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda boyitib borish qobiliyatini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Har qanday hamkorlik faoliyat ma'lum bir tamoyillarga asoslangan bo'lib, talabalarni kasbiy shakllantirishga yo'naltiriladi.

Alovida qayd etish lozimki, pedagogik amaliyot jarayoni oldiga qo'yilgan talablar, amaliyotni tashkil etish va boshqarish tamoyillari hamda yo'llari talabalarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish, hamkorlik qilish, uni hamkorlikda ishlashga yo'naltirish, shaxsiy faoliyatini to'g'ri tashkil etish, muloqotga kirishish, pedagogik muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, MTTda ijodiy, ishchanlik muhitini vujudga keltirish, amaliyot davridagi faoliyatini aniq va to'g'ri baholashga doir tushunchalar bilan tanishtirishni nazarda tutadi.

Yuqoridagi fikrlarga amal qilgan holda biz tajriba-sinov ishlari jarayonida quyidagi pedagogik texnologiya tamoyillar asosida faoliyat yuritdik va mazkur tamoyillarni tabiiy sharoitdan kelib chiqib takomillashtirdik.

**O'qitib tadqiq etish, tadqiq etib o'qitish tamoyili.** Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi:

1) Ta'lim muassasalarining har bir o'qitvchisi o'z fani sohasiga o'qvchilarни jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borish lozim;

2) O'qitvchi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqadi ni amaliyotda sinab ko'radi va kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya'ni, ta'lim jarayonini tadqiq etadi.

O'qitish jarayonining mazkur ikki jihat muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'qituvchining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga va o'quvchilarни bo'lajak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlash uchun zamin yaratadi.

**Ta'limning uzluksizligi tamoyili.** Mazkur tamoyil o'quvchilarining kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari, mavjud sifatlarning hayotiy faoliyat davomida takomillashib borishini nazarda tutadi. Shaxsga uning butun umri uchun as qotishi mumkin bo'lgan bilimlarni berish mumkin emas, zero, mavjud bilimlar har besh-o'n yil mobaynida o'zgarib, mazmunan boyib boradi.

**Faoliyatli yondashuv tamoyili** nazariya va amaliyotning didaktik bogliqligiga asoslanadi. Didaktika nazariyasida bilim tushunchasi quyidagi ikki xil ma'noda izohlanadi:

a) o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar;

b)ular tomonidan o'zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo'llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar.

Bilimlar faoliyat yuritish jarayonidagina mustahkamlanadi, shu sababli o'quvchilarda nazariy bilimlarni amalda qo'ullay olish iqtidorini tarbiyalash lozim. Amaliyotdagи tatbiqiga ega bo'lmagan bilimlar tez orada unutilib yuboriladi<sup>3</sup>.

<sup>3</sup> O'Q.Tolipov, M.Uzmanboyeva Pedagogik texnologiyalarning tadiqiy asoslari (O'quv qo'llanma) T.: «Fan nashriyoti» 2006.19-bet

# INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA - MARCH 7

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

Masalaga boshqacha yondashadigan bo'lsak, amaliyat rahbarlari va MTT tarbiyachisi birgalikda hamkorlik muhitini takomillashtirishi pedagogik amaliyat bosqichlarida talabaga ota-onalar bilan hamkorlik qilishda aniq va tizimli ko'rsatma va yo'riqnomalarni ishlab chiqishi va amaliyotga tatadqiq qilishi.(**O'qitib tadqiq etish, tadqiq etib o'qitish tamoyili**) orqali mustahkamlanadi. Shu bilan birga, pedagogik amaliyotda hamkorlikka tayyorlash samaradorligini ta'minlashda talabalarni kommunikativ-kompetensiyalarni rivotantirish, kasbiy sifatlarlarni kelgusi tarbiyachilik faoliyatida (**ta'limning uzlusizligi tamoyili**) qo'llash hamda nazariy va amaliy bilimlarni ota-onalar bilan birgalikda (**faoliyatli yondashuv tamoyili**), samarali faoliyatiga zamin yaratadi hamda ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydi. Demak, mazkur tamoyillar o'quvchining o'z faoliyatida mustakil ta'limni tashkil etishga e'tibor berishi, pedagog yetakchiliginini ta'minlagan ta'limdan o'quvchilarning mustaqil bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishni ifodalaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, 16.12.2019 yildagi O'RQ-595-sonli Qonuni
2. Z.E.Asimova O'quvchilarning shaxslararo munosabatlari integral diagnostikasi. Diss... kand. ped. nauk. – Toshkent, 2009. 79 b
3. O'.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva Pedagogik texnologiyalarning tadiqiy asoslari (O'quv qo'llanma) T.: «Fan nashriyoti» 2006.19-bet.
4. S. Sh. Abduraxmonova, S. U. Ergasheva "Pedagogik amaliyat vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishining mazmuni" Science and education scientific journal ISSN 2181-0842 volume 4, issue 7 july 2023.482 b.